



Tayyor tarkiblar

KNAUF-Tifengrund

Axborot varaqasi 01/2023



KNAUF-Tifengrund

Chuqur singadigan mustahkamlovchi gruntovka

Qo'llanish sohasi

KNAUF-Tifengrund - polimer dispersiya asosida tayyorlangan, tez quriyadigan, bug' o'tkazuvchan, foydalanishga tayyor gruntovka.

Yuzaning mustahkamligini oshirish, singdiruvchanligini kamaytirish va yakuniy bosqich qatlamining unga bo'lgan adgeziyasini yaxshilash (shpaklyovka, bo'yoq, gulgog'oz, qoplama plitkalari) uchun mo'ljallangan.

O'zining yuqori darajadagi singuvchanlik xususiyati tufayli mayda g'ovak materiallarni gruntovkalashga yaxshi mos keladi.

- Gipskarton;
- Gips va sement suvoqlar;
- Gipskarton choklarini faska hosil qilib, gips suvoq bilan suvashdan oldin;
- Gips va sement styajkalar.

Bino ichkarisidagi va tashqarisidagi ishlar uchun.

Qadoq va saqlov

Gruntovka 10 kilogrammli chelaklarga qadoqlanadi. Qadoqni bevosita quyosh nurlari ta'siridan saqlang. Musbat haroratda (+5 °C darajadan +30 °C darajagacha) quruq xonalarda, isituvchi moslamalardan uzoqda saqlansin. Muzlab ketishiga (xususan tashish paytida ham) yo'l qo'ymang. Muzlashga chidamli retsepturaga ega gruntovkani (chelagida tegishli belgiga ega) quruq bino ichida saqlash va -40 °C darajadan +30 °C darajagacha bo'lgan haroratda tashishga ruxsat etiladi. Gruntovka muzlab qolgan taqdirda, qo'llashdan oldin uning erishini isituvchi moslama yoki issiq suv yordamida tezlashtirish mumkin emas. Bunday qilish gruntovkaning buzilishiga olib keladi. Gruntovkani faqat xona haroratida eritish kerak. Qo'llashdan oldin yaxshilab aralashtirilsin. Muzlashga chidamli retseturaga ega gruntovka ochilmagan zavod chelagida 5 ta muzlash va erish sikliga dosh bera oladi. Muhri buzilmagan va shikastlanmagan qadoqda saqlash muddati—12 oy

Gruntovka sarfi

Bir qavat qilib surtilganda sarfi.

Material	O'lchov birligi	Soni
KNAUF-Tifengrund	kg/kv. m	0,1

Ishlar tartibi

Asos toza, changlardan va ajraluvchi zarralardan xoli bo'lishi kerak. Havo va ishlov beriladigan asosning harorati gruntovka to'liq quriguniga qadar +5 °C darajadan +30 °C darajagacha bo'lishi kerak. KNAUF-Tifengrund gruntovkasi qo'llanilish uchun tayyor.

Ishlarni bevosita boshlashdan avval tarkibni aralashtirish, keyin bir tekis holatda, suv bilan suyultirmasdan, valik, cho'tka, popuk yordamida ishlov berilayotgan yuzaga bir tekis surtish tavsiya etiladi. Yuqori gigroskopik yuzalarni zaruratga qarab ikki marta gruntlang. Bo'yoq ostidagi asosga suv bilan 1:1 tartibda aralashtirilgan KNAUF-Tifengrund bilan ikki marta ishlov berish tavsiya etiladi. Gruntovka bilan ishlov berilgan yuza bilan bog'liq keyingi ishlar, u quriganidan (kamida 3 soatdan) so'ng bajarilsin. Asos yuzasiga qurilish changi yig'ilib qolishining oldini olish uchun gruntovka qurishining yakuni va keyingi ishlar boshlanishi vaqtining oralig'i iloji boricha kam bo'lishi kerak. KNAUF-Tifengrund yuzaga surtilgach, ishlatilgan asboblarni va idishlarni darhol suv bilan yuvilsin. Qurib qolgan KNAUF-Tifengrund tarkibini faqat mexanik usulda olib tashlash mumkin.

Gruntovkaga boshqa materiallarni qo'shish mumkin emas, aks holda bu uning xususiyatlariga sezilarli putur yetkazadi.

Toshkent shahri, Qoratosh ko'chasi, 2A

 info-uz@knauf.com

 www.knauf.uz

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlarni kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalangan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashtirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.